# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INKLYUZIV TA’LIM BERISHDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

**Musurmanova Shaxlo Ilhomovna**
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.
E-mail: shaxlomusirmonova@gmail.com
**Egamqulova Mohinur To‘lqin qizi**
Guliston Davlat Pedagogika Instituti 1-kurs magistranti
Mohinuregamqulova22@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berish jarayonida inklyuziv ta’lim hamda uning dars jarayoniga tatbiq etilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishdan oldin “Inklyuziv ta’lim” tushunchasining ma’nosini tushunib olish kerak. Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga inklyuziv ta’lim berish bilan bir qatorda u jarayonda raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, raqamli texnologiya, innovatsiya, alohida ehtiyoj, boshlang‘ich ta’lim

**Abstract:** In this article, it is necessary to understand the meaning of the concept of “Inclusive education” before getting information about inclusive education in the process of teaching elementary school students and its application to the teaching process. This article talks about inclusive education for elementary school students, as well as the use of digital and innovative technologies in the process.

**Key words:** inclusive education, digital technology, innovation, special needs, primary education.

Dunyo hamjamiyatining globallashuv sari borayotgan hozirgi davrida ta’limning barcha bo‘g‘inlariga, aynan inklyuziv ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Inklyuziv ta’lim rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning

hayot xavfsizligini ta’minlashda YuNESKO, Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi (AQSh), Uzluksiz ta’lim instituti (Rossiya), Inklyuziv ta’lim nazariyasi markazi (Rossiya), European University Institute, Max Plank Institute kabi tadqiqot markazlarining ilmiy natijalari alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maxsus maktablarda o‘quvchilarning hayot xavfsizligini ta’minlash psixologik va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish, ta’minlash va tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda. Jahonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni mehnat bozoriga mos raqobatbardoshlilik, muhitga tez moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlarga nisbatan mobillilik, innovatsion kasbiy salohiyat elementlarini o‘zida qaror toptirish hamda pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni ta’minlash orqali hayot xavfsizligini ta’minlash talab etiladi. Shuning uchun imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning hayot xavfsizligini ta’minlashning uslubiy aspektlarini takomillashtirish, modellashtirish, o‘qitishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish, hayot xavfsizligining ta’minlanganlik darajalarini baholash mezonlarini aniqlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori inklyuziv ta’limni zamon talabiga muvofiqlashtirish, uning pedagogik imkoniyatlarini oshirish hamda tubdan isloh qilish davlat siyosati darajasidagi masalaga ko‘tarildi. 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” hamda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning hayot xavfsizligini ta’minlashning psixologik va pedagogik shart-sharoitlarini ta’minlash, pedagogik texnologiya-larini ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ta’limga oid vazifalari ijrosi jarayonida boshlang‘ich ta’limni hamda ularga inklyuziv ta’lim berishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qitishning turli shakllari, vositalari va metodlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga inklyuziv ta’lim berishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi ham bugungi ehtiyojlarning biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim jarayonining inklyuziv ta’lim innovatsiyasi tashkil qilinganligi muhim ahamiyatga egadir. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinflarda inklyuziv sinflarni tashkil qilish va uning vositasida inklyuziv ta’lim oluvchilarni sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qitish amaliyotiga qaratilmoqda. Ayni paytda, boshlang‘ich ta’limda inklyuziv sinflarni tashkil qilish va ularning samaradorligiga erishish uchun inklyuziv ta’limning metodikasini ishlab chiqish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv ta’limni amalga oshirish metodikasini tarkib toptirish va oliy pedagogik ta’lim muassasalarida defektolog, surdopedagog, logoped mutaxassisligiga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlash tavsiya etiladi.

Yurtimizda bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim loyihasi» asosida ish olib borilmoqda va bunda, asosan, inklyuziv ta’limning imkoniyatlaridan foydalanish e’tiborga olinmoqda. Chunki inklyuziv ta’lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat’iy nazar ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Bunda alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta’lim maktablarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatga kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug‘diradi.

Inklyuziv ta’lim nafaqat nogiron bolalar o‘rtasida, balki sog‘lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o‘rtasida, maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham fanlarni o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgan

o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o‘quvchilarning bir-biriga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba’zan sog‘lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o‘z tengdoshlariga qo‘shilmay, tortinishi, o‘z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o‘stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta’lim amaliyoti va ta’lim xizmatlarini tashkillashtirishda o‘zgarishlar qilishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta’lim jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas’uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi.

Boshlang‘ich ta’lim hamda inklyuziv ta’lim jarayonida qo‘llanishi lozim bo‘lgan raqamli texnologiyalarning bir necha turlari mavjud. Bular quyidagilar:

1) kompyuterli dasturga asoslangan o‘qitish raqamli texnologiyasi;
2) elektron-modulli texnologiya;
3) masofaviy ta’lim texnologiyasi;
4) mustaqil ta’lim texnologiyasi;
5) individual yondashguv texnologiyasi;
6) Internet ta’limi texnologiyasi;
7) milliy portallar texnologiyasi;
8) mohir pedagoglarning shaxsiy texnologiyasi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlangan. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga inklyuziv ta’lim berish jarayonida kompyuterli dasturga asoslangan o‘qitishning raqamli texnolorgiyasidan foydalanish qiziqarliligi, tezkorligi va samaradorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilar ishlarni amalga oshirish maqadga muvofiq:

a) mavzularning kompyuterli variantlarini tayyorlash;

b) kompyuterli variantlarni o‘quvchilarga taqdim etish va ulardan foydalanish bo‘yicha mexanizmlarini yaratish;

d) vertual aloqa vositasida o‘quvchilarga tegishli mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berish;

e) tayyorlangan o‘quv materiallarini animatsion va multimediyali tasvirlarga boy tarzda taqdim etish;

f) o‘quvchilarning o‘zlashtrish jarayonini nazorat qilish metodikasini belgilab qo‘yish.Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning o‘ziga xos imkoniyatlaridan biri o‘quv materiallarini yangilab borish mavjudligidir. Shu sababli keyingi paytlarda ta’limning barcha turlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga asosiys e’tibor qaratilmoqda. 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinflarda Informatika fani o‘qitila boshlandi. Bu o‘quv fani o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi, ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasi va texnik vositalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shu sababli mazkur fanni o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday ahamiyatning asosiylariga quyidagilar kiradi:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim olishga qiziqtirish;
2) o‘quv materiallarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos ravishda turli vositalar asosida tayyorlash;
3) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘qituvchi kitobi uchun yangi metodik tavsiyalarni taqdim etish;
4) boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayonini yangilab borish;
5) o‘qitish jarayoniga xorijiy mamlaktlarning tajribalarini joriy etish;
6) mahoratli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual tajribalarini ommalashtirish;

7) boshlang‘ich ta’lim sifatini raqamli texnologiyalar asosida yuksaltirish.

Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi:

a) boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish;

b) boshlang‘ich ta’limda samara beradigan raqamli texnologiyalarni saralash va uning majmuini amaliyot uchun texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish;

d) Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot insitutida amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha mahoratini oshirib borish.

Bunday yondashuvlar boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini tarkib toptiradi. Xulosa qilib boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qitish mazmunini yangilaydi, vaositalarini takomillashtiradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarini qo‘llash monitoringini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan. Bunday imkoniyatlarni qo‘ldan chiqarmasdan samarali foydalanish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2022. –B.39. www.lex.uz

2. YUNESCO: Jamiyatga va inklyuziv ta’limga muhtojlarga qaratilgan dastur. – 1994

3. Inklyuziv ta’lim. // “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2024 yil 7 fevral soni

4. Musurmonova, S. I. (2021). EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL WORK IN PROVIDING ENVIRONMENTAL EDUCATION TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS. In Актуальные вопросы современной науки и образования (pp. 254-256).

5. Musurmonova, S. I. (2020). FORMATION OF ECOLOGICAL CONCEPTS AND